

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
“IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA” FAKULTETI

21.10.2024 yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Fakultet dekani: Umarov Elshod

Qatnashdilar:

Kafedra mudirlari: Qodirov Najmuddin
Xasan Sabirov

Dekan o‘rinbosari: J.Xoshimov
Z.Uralbayev
X.Mamajanova

Yoshlar ittifoqi yetakchisi: Y. Rahimberdiyeva

**Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika” fakultetida
“Rektor kubogi” egalari ma’lum bo‘ldi.**

BAYONNOMASI

2024-yilning 21-oktyabr kuni, universitetimizda o‘tkazilgan “Rektor kubogi” musobaqasining final o‘yini nihoyasiga yetdi. Musobaqada 12 ta jamoa ishtirok etdi, umumiylisobda esa 70 dan ortiq talaba yoshlar faol qatnashib, o‘zaro mahorat va kuchlarini sinab ko‘rdilar.

Final uchrashuvida, “Progress” jamoasi ajoyib o‘yin namoyish etib, gollar nisbati 4:1 bilan g‘alaba qozonib, kubokni qo‘lga kiritdi. Musobaqa davomida a’lo o‘yin ko‘rsatgan “Iqtisodchi” jamoasi 2-o‘rinni, “Hopeful boys” jamoasi esa 3-o‘rinni egallashdi.

“Progress” jamoasi o‘zining kuchli taktikalari va jamoaviy o‘yini bilan musobaqaning eng kuchli jamoasi sifatida tan olindi. Jamoa a’zolari universitetimiz rektori tomonidan kubokni katta xursandchilik bilan qabul qilib, o’zlarining muvaffaqiyatini nishonladilar.



Musobaqada ishtirok etgan barcha jamoalar va talabalarga o'zlarining jonbozliklari, o'zaro hurmatlari va yuksak mahoratlari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Shuningdek, ushbu tadbirning tashkil etilishida mehnat qilgan barcha tashkilotchilarga va homiylargacha rahmat aytib, kelgusida sportning rivoji uchun yangi g'oyalar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda davom etamiz.

Rektor kubogi musobaqasi universitetimizda sportni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor va yuksak ruhda o'zaro raqobatni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Yana bir bor, "Progress" jamoasini g'alaba bilan tabriklaymiz!

Kelib chiqadigan boshqa tadbirlarda ham muvaffaqiyat va yutuqlarga erishish tilaklarimizni bildiraman!